



MEHNAT VA KASBIY FAOLIYATNING
YORDAMCHI TARMOQLARARO TURLARI
SOHASIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TARMOQ
KENGASHI

KASBIY STANDART

**KADRLAR (INSON RESURSLARI)NI
BOSHQARISH BO'YICHA
MUTAXASSISLAR**



“Kadrlar (inson resurslari)ni boshqarish bo’yicha mutaxassislar” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Mehnat va kasbiy faoliyatning yordamchi tarmoqlararo turlari sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Kadrlar (inson resurslari)ni boshqarish bo'yicha mutaxassislar

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0142



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Mazkur kasbiy standart tashkilot va korxonalarda kadrlar (inson resurslari)ni boshqarish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarning kasbiy faoliyatini tartibga solishga mo'ljallangan normativ hujjat hisoblanadi. U mehnat munosabatlari tashkil etish, kadrlarni rejalashtirish, tanlash va joylashtirish, xodimlarning mehnat faoliyatini hujjatlashtirish, baholash, rivojlantirish, mehnat intizomi va motivatsiya tizimlarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq kasbiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

Kasbiy standart quyidagi tashkilotlar va subyektlar tomonidan qo'llaniladi:

davlat organlari va tashkilotlari;

turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va muassasalar;

kadrlar (inson resurslari)ni boshqarish bo'linmalari va xizmatlari;

kadrlar bilan ishlash, mehnat munosabatlari va tashkiliy rivojlanish bo'yicha konsalting va servis tashkilotlari;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi ta'lim va trening muassasalari;

xodimlarning malakasini baholash, attestatsiyadan o'tkazish va sertifikatlash bilan shug'ullanuvchi vakolatli organlar va markazlar.

Ushbu kasbiy standart kadrlar (inson resurslari)ni boshqarish xodimlarining mehnat funksiyalari, mehnat vazifalari, zarur bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek mehnat qonunchiligi, mehnatni muhofaza qilish va ijtimoiy-mehnat munosabatlari bo'yicha majburiy kasbiy talablarni belgilaydi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

KPI – asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (Key Performance Indicator) – tashkilot, bo'lim yoki xodimning maqsadlarga qanday darajada yetishayotganini baholash uchun qo'llaniladigan mezon yoki ko'rsatkich.

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 09-apreldagi "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining inson resurslarini boshqarish bo'yicha faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 212-son Qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

KPI – asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (Key Performance Indicator)

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Kadrlar (inson resurslari)ni boshqarish bo'yicha mutaxassislar	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi	Tashkilotdagi inson resurslarini samarali boshqarish orqali tashkilotning strategik maqsadlariga erishishni ta'minlash	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	O. seksiya. Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish. 78. Ishga joylashtirish; 78.1 Ishga joylashtirish bo'yicha agentliklar faoliyati; 78.10 Ishga joylashtirish bo'yicha agentliklar faoliyati; 78.10.0 Ishga joylashtirish bo'yicha agentliklar faoliyati; 78.2 Vaqtincha ishga joylashtirish bo'yicha agentliklar va xodimlar bilan ishlash bo'yicha boshqa tashkilotlar faoliyati; 78.20 Vaqtincha ishga joylashtirish bo'yicha agentliklar va xodimlar bilan ishlash bo'yicha boshqa tashkilotlar faoliyati; 78.20.0 Vaqtincha ishga joylashtirish bo'yicha agentliklar va xodimlar bilan ishlash bo'yicha boshqa tashkilotlar faoliyati.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish faoliyatini tartibga soladi hamda xodimlarni rejalashtirish va tanlash, ishga qabul qilish va moslashtirish, mehnat munosabatlarini yuritish, xizmat faoliyatini baholash, o'qitish va rivojlantirish, motivatsiya va rag'batlantirish, ish haqi va kompensatsiyalar, kadrlar hujjatlarini yuritish hamda ichki HR jarayonlarini samarali tashkil etish bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va kompetensiya talablarini belgilaydi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	Malaka darajasi:
		33330003 Kadrlar bo'yicha inspektor	5
		44160002 Kadrlar hisobi bo'yicha mutaxassis	5
		24232001 HR tahlilchi	6
		24232008 Xodimlarni rivojlantirish bo'yicha professional-mutaxassis	6
		12120001 Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)	7

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	33330003 Kadrlar bo'yicha inspektor	A1.5	Xodimlar hujjatlarini yuritish	A1.01.5	Ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, xizmat safari va boshqa shu kabi hujjatlarni rasmiylashtirish (elektron platformada yuritish).
				A1.02.5	Mehnat shartnomalar loyihalarini tayyorlash va ularni nazorat qilish.
				A1.03.5	Xodimlarning shaxsiy yig'ma-jildlarini yuritish va saqlash.
				A1.04.5	Xodimlar hisobi va ularga oid ma'lumotlarni (T-2 shakl) yuritish.
		A2.5	Mehnat intizomi va ichki tartib nazorati	A2.01.5	Mehnat intizomi va xodimlarning kelib-ketish vaqtini qayd etish.
				A2.02.5	Mehnat kodeksi va ichki tartib-qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish.
		A3.5	Xodimlarning ta'tillari va mehnat ta'tilini yuritish	A3.01.5	Ta'til jadvalini shakllantirish va bajarilishini nazorat qilish.
				A3.02.5	Ta'tilga chiqish va qaytish bo'yicha tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish.
		A4.5	Hisobotlar va statistik ma'lumotlar tayyorlash	A4.01.5	Mehnatga oid ichki va davlat organlariga taqdim etiladigan hisobotlarni tayyorlash (elektron platformada yuritish).
				A4.02.5	Xodimlar to'g'risida ma'lumotlarni (soni, yoshi, jinsi, tajribasi va h.k.) yuritish.
		A5.5	Xodimlar bilan ishlash (psixologik va ijtimoiy masalalarda)	A5.01.5	Yangi xodimlarni adaptatsiya qilishda yordam berish.
				A5.02.5	Mehnat nizolarini hal qilishda ishtirok etish.
2.	44160002 Kadrlar hisobi bo'yicha xodim	B1.5	Xodimlar yozuvlarini boshqarish	B1.01.5	Xodimlar vaqtini hisoblash.
				B1.02.5	Xodim(kadr)lar harakati bo'yicha hisobotlarni tayyorlash.
		B2.5	Qonunchilikda belgilangan talablar va standartlarga muvofiq ravishda kadrlar yozuvlarini yuritish	B2.01.5	Tashkilotning mehnat munosabatlarini va kadrlar hujjatlari holatini tartibga soluvchi normativ hujjatlarini tahlil qilish.
				B2.02.5	Kadrlar hujjatlarini yuritish, buxgalteriya hisobi va kadrlar harakati uchun axborot, elektron tizimlar va ma'lumotlar bazalari bilan ishlash.

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
3.	24232001 HR tahlilchi	D1.6	HR tahlilini rejalashtirish va o'tkazish (tavsif, diagnostika va prognoz tahlili)	D1.01.6	Mavjud ma'lumotlar asosida (deskriptiv) HR-tahlil.
				D1.02.6	Prognozlash HR tahlili.
		D2.6	HR tahlili va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish yondashuvlarini joriy etish bo'yicha rahbarlar va xodimlarga maslahat berish va ularni o'qitish	D2.01.6	HR tahlili masalalari bo'yicha rahbarlar va xodimlarga maslahat berish.
				F2.02.6	Rahbarlar va xodimlarni HR tahlili bo'yicha o'qitish.
4.	24232008 Xodimlarni rivojlantirish bo'yicha professional-mutaxassis	E1.6	Kadrlarni tanlash va joylashtirish	E1.01.6	Vakant lavozimlar uchun xodimlar izlash, tanlash va ishga qabul qilish.
				E1.02.6	Ishga qabul qilish jarayonida tanlovlarni tashkil qilish.
				E1.03.6	Kadrlar, shu jumladan yosh kadrlar zaxirasini shakllantirish.
		E2.6	Xodimlarni rivojlantirish va o'qitish	E2.01.6	Xodimlarning ko'nikmalarni oshirish uchun treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslarni tashkil etish.
				E2.02.6	Kadrlarni kasbiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.
				E2.03.6	Xodimlarni motivatsiyalash va ish o'rnida o'stirish (kouching, mentorlik).
		E3.6	Ish haqi va rag'batlantirish tizimini tashkil etish	E3.01.6	Ish haqi tizimi (shtatlar jadvali)ni ishlab chiqish.
				E3.02.6	Xodimlarni mukofotlash, sog'lig'ini tiklash, dam olish, pensiya va boshqalarni ta'minlash.
		E4.6	Mehnat intizomini ta'minlash	E4.01.6	Intizomiy qoidalarni ishlab chiqish va joriy etish.
				E4.02.6	Intizomiy kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish.

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	12120001 Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)	E5.6	Xodimlar samaradorligini baholash	E5.01.6	Xodimlar samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash va ishlab chiqish.
				E5.02.6	Xodimlarning samaradorligini oshirish uchun takliflar ishlab chiqish.
				E5.03.6	Qoniqarsiz natijalar olgan xodimlar bilan ish olib borish.
		E6.6	Jamoaviy madaniyat va xodimlar bilan aloqalar	E6.01.6	Xodimlar jamoaviy madaniyatini shakllantirish.
		E7.6	HR bo'yicha hisobot va strategiya	E7.01.6	Kadrlar bo'yicha statistika (ishdan ketish, ishga qabul qilish)ni tahlil qilish.
				E7.02.6	Korxonaning uzoq muddatli HR strategiyasini ishlab chiqish.
		F1.7	Kadrlar siyosati va strategiyasini shakllantirish	F1.01.7	Tashkilotning umumiy maqsad va strategiyasiga muvofiq kadrlar siyosati va inson resurslari strategiyasini ishlab chiqish.
				F1.02.7	Mehnat bozorini tahlil qilish va HR sohasidagi zamonaviy tendensiyalarni inobatga olgan holda siyosatni shakllantirish.
1.	12120001 Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)	F2.7	Ishga qabul qilish va tanlov jarayonlarini tashkil etish	F2.01.7	Xodimlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.
				F2.02.7	Ish o'rinlarini to'ldirish uchun samarali tanlov tizimini yo'lga qo'yish.
				F2.03.7	Intervyu, test va boshqa baholash vositalarini joriy etish.
		F3.7	Xodimlarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash	F3.01.7	Xodimlarni o'qitish, malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish.
				F3.02.7	Salohiyatli xodimlarni aniqlash va ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash (talant-menejment).
		F4.7	Ish haqi va kompensatsiya siyosati	F4.01.7	Ish haqi, mukofotlash va rag'batlantirish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish.
				F4.02.7	Ichki adolat va tashqi raqobatbardoshlikni ta'minlovchi kompensatsiya siyosati yuritish.

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
		F5.7	Mehnat munosabatlarini boshqarish	F5.01.7	Jamoa kelishuvlarini, mehnat shartnomalarini rasmiylashtirish va nazorat qilish.
				F5.02.7	Mehnat intizomi va ichki qoidalarga rioya etilishini ta'minlash.
				F5.03.7	Mehnat qonunchiligi va me'yoriy hujjatlarga amal qilinishi ustidan nazorat.
				F5.04.7	Konfliktlarni hal etish va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish.
		F6.7	Xodimlar samaradorligini baholash	F6.01.7	KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) va boshqa baholash tizimlarini joriy etish.
				F6.02.7	Attestatsiya va baholash jarayonlarini tashkil etish.
		F7.7	Jamoaviy madaniyat va xodimlar faolligini oshirish	F7.01.7	Tashkilotda ijobiy ish muhitini shakllantirish.
				F7.02.7	Xodimlar faolligi, loyalligi va motivatsiyasini tahlil qilish va oshirish choralarini ko'rish.
		F8.7	HR tahlil va hisobotlar tayyorlash	F8.01.7	Kadrlar bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va rahbariyatga taqdim etish.
				F8.02.7	HR sohasida avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish.

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi	Kadrlar bo'yicha (bo'limi) inspektor	
Mashg'ulot nomining kodi	33330	
TMR bo'yicha malaka darajasi	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ta'lim darajasi boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim bo'lganda 2 yillik amaliy tajriba talab etiladi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Strategik va tizimli fikrlash; Muloqot va fasilitatsiya qobiliyati; Tashabbuskorlik va ijodkorlik; Tahliliy yondashuv va natijaga yo'naltirilganlik; Moslashuvchanlik va o'zini rivojlantirish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	O'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	7	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)
	6	Xodimlarni rivojlantirish bo'yicha professional-mutaxassis
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.5 Xodimlar hujjatlarini yuritish	A1.01.5 Ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, xizmat safari va boshqa shu kabi hujjatlarni rasmiylashtirish (elektron platformada yuritish)	O'qitish natijalari:
		Mehnat harakatlari:
		1. Nomzod hujjatlarini (elektron) qabul qilish
		2. Buyruq va mehnat shartnomasi loyihasini tayyorlash
		3. Xodimni ichki tartib qoidalari va lavozim yo'riqnomasi bilan tanishtirish
		4. Mehnat daftarchasi (mavjud bo'lsa)ga ma'lumotlarni va elektron platformaga kiritish
		5. Xodimdan ishdan bo'shatish bo'yicha arizani qabul qilish.
		6. Rahbar bilan kelishgan holda, ishdan bo'shatish buyruq loyihasini tayyorlash
		7. Mehnat daftarchasi(mavjud bo'lsa)ga tegishli yozuv kiritish va xodimga qaytarish, elektron platforma bazasidan xodimni chiqarish

		8. Xizmat safari arizasi(topshirig'i)ni qabul qilish va kerakli ma'lumotlarni to'plash
		9. Xizmat safari buyrug'i loyihasini tayyorlash
		10. Xizmat safari guvohnomasini yuritish
		11. Xizmat safari hisobotini qabul qilish va arxivlash.
		12. Ta'tillar jadvaliga muvofiq xodimlarni ta'til vaqti haqida ogohlantirish
		13. Ta'til buyrug'i loyihasini tayyorlash
		14. Ta'til davomida mehnatga layoqatsizlik yoki boshqa o'zgarishlar bo'lsa, hujjatlarni qayta rasmiylashtirish
		15. Shtat jadvali asosida lavozimlar va xodimlar ro'yxatini yuritish
		16. Muddatli mehnat shartnomalarining muddatini kuzatish
		17. Xodimlar haqida shaxsiy ma'lumotlarning o'zgarishi holatlarini kiritish
		18. Xodimlarning ishga kelish-ketishi monitirongini olib borish.
		19. Hisobotlar tayyorlash (ishlab chiqarish hisoboti, xodimlar aylanmasi va h.k.)
		20. Mehnat daftarchalarini, shaxsiy yig'ma jildlarni arxivlash
		Ko'nikmalar:
		Hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ular loyihalarini tayyorlash, arxivlash va shaxsiy yig'ma-jildlarni yuritish
		Elektron platforma va dasturlar bilan ishlash
		Qonunchilik va ichki nizomlarni qo'llash
		Hisobot tayyorlash
		Muloqot va jamoada ishlash
		Maxfiylik va mas'uliyatlilik qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Mehnat to'g'risidagi qonunchilik
		Idora ishlarini yuritish va hujjatlashtirish qoidalari
		Elektron axborot tizimlari va dasturlar
		Tashkiliy va ma'muriy ishlarni boshqarish asoslari
		Muloqot va jamoaviy madaniyat
		Buxgalteriya va tovar moddiy boyliklar hujjatlari
	A1.02.5 Mehnat shartnomalar loyihalarini tayyorlash va ularni nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Mehnat shartnomasi loyihasini tayyorlash
		2. Mehnat shartnomasida ish vaqti, dam olish, ta'til, ish haqi, bandlik shartlari va boshqa muhim qismlarni qonunchilik asosida ko'rib chiqish
		3. Elektron platformada (agar mavjud bo'lsa) shartnomani yuklash va elektron imzo bilan tasdiqlashni ta'minlash
		4. Shartnoma bo'yicha xodimni tanishtirish, hujjatlarni shaxsiy yig'ma-jildga joylashtirish va arxivlash
		5. Shartnoma muddati va shartlarini kuzatish (nazorat qilish)

		6. Hujjatlarni saqlash va hisobot yuritish
		Ko'nikmalar:
		Hujjatlashtirish
	A1.03.5 Xodimlarning shaxsiy yig'ma- jildlarini yuritish va saqlash	Elektron platforma va hujjat aylanmasi bilan ishlash
		Tekshirish va nazorat qilish
		Muloqot va xodimlar bilan ishlash
		Arxiv va shaxsiy ish jo'natmasi bilan ishlash
		Bilimlar:
		Mehnat to'g'risidagi qonunchilik
		Hujjatlashtirish va arxiv yuritish qoidalari
		Idora ishlarini tashkil etish va ichki reglamentlar
		Elektron tizimlar va raqamli hujjatlar yuritish asoslari
		Jamoaviy va tashkiliy munosabatlar
		Nazorat va tahlil qilish qoidalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Xodim haqidagi hujjatlarni yig'ish
		2. Shaxsiy yig'ma-jildni rasmiylashtirish
		3. Jildga kiritiladigan hujjatlarni shakllantirish va joylashtirish
		4. Hujjatlar yangilanishini va to'liqligini nazorat qilish
		5. Xodimlar jildlarini saqlash va maxfiyligini ta'minlash
		6. Arxivlash va ishdan bo'shatilgan xodimlar hujjatlarini saqlash
		7. Hisobot yuritish va taqdim etish
	A1.04.5 Xodimlar hisobi va ularga oid ma'lumotlarni (T-2 shakl) yuritish	Ko'nikmalar:
		Hujjatlashtirish
		Tartib-intizom va e'tiborlilik qoidalariga rioya etish
		Qonunchilik asosida ishlash
		Axborot tizimlari bilan ishlash
		Maxfiylik va axloqiy mas'uliyat qoidalariga rioya etish
		Hujjatlarni nazorat va tahlil qilish
		Bilimlar:
		Mehnat to'g'risidagi qonunchilik
		Kadrlar ishlarini rasmiylashtirish tartibi
		Arxiv va hujjat saqlash talablari
		Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish asoslari
		Axborot texnologiyalari bilan ishlash asoslari
		Idora ishlari va ichki hujjatlar bilan ishlash
		Mehnat harakatlari:
		1. Xodimlar hisobi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish
		2. Xodimlar mehnat harakati bilan bog'liq ma'lumotlarni yuritish
		3. Elektron va qog'oz shaklda kadrlar hisobi yuritish
		4. Ta'tillar va mehnat ta'tili hisobini yuritish
		5. Intizomiy, rag'batlantiruvchi va boshqa harakatlarni qayd etish
		6. Ishchi harakatlarini tahlil qilish va hisobot tayyorlash

		7. Ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash
		8. Davlat va nazorat organlariga taqdim etiladigan ma'lumotlarni tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Tizimli hujjatlashtirish
		Elektron axborot tizimlari bilan ishlash
		Mehnat harakatlarini kuzatish va qayd etish
		Hujjatlar to'liqligi va to'g'riligini nazorat qilish
		Axborot maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash
		Tahlil qilish
		Mehnat to'g'risidagi qonunchilik va ichki me'yorlarga rioya qilish
		Bilimlar:
		Mehnat to'g'risidagi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar.
		Kadrlar hisobini yuritish tizimi
		Ma'lumotlarni boshqarish va axborot texnologiyalari
		Hujjatlar bilan ishlash va arxivlash
		Mehnatga oid hisobotlar va tahlillar
		Ish jarayonidagi ichki me'yor va talablar
		Muloqot va etika qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Biriktirilgan xodimlar harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik
		2. O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasidagi mehnat jarayonlarini mustaqil boshqarish va nazorat qilish, shuningdek, biriktirilgan xodimlar mehnatini tekshirish va rivojlantirish
A2.5 Mehnat intizomi va ichki tartib nazorati	A2.01.5 Mehnat intizomi va xodimlarning kelib-ketish vaqtini qayd etish	Mehnat harakatlari:
		1. Xodimlarning ish vaqti va kelib-ketish vaqtini qayd etish.
		2. Ish vaqti rejimini nazorat qilish.
		3. Mehnat intizomi qoidalariga rioya etilishini ta'minlash
		4. Mehnat intizomi bilan bog'liq hujjatlarni tayyorlashga taklif berish va saqlash
		5. Hisobotlar tayyorlash
		6. Xodimlarning kelib-ketish vaqtini nazorat qilishda elektron tizimlardan foydalanish
		Ko'nikmalar:
		Elektron va qog'oz asosidagi qayd etish tizimlarini boshqarish.
		Mehnat to'g'risidagi qonunchilik va mehnat intizomiga oid qoidalar asosida ishlash
		Xodimlar bilan muloqot qilish
		Muammolarni hal qilish
		Elektron platformalardan foydalana olish, ishlay olish
		Ta'rif va hisobot tayyorlash
		Bilimlar:
		Mehnat to'g'risidagi qonunchilik
		Mehnat intizomi qoidalari

		Xodimlar ish vaqtini hisobga olish tizimlari
		Hujjatlar bilan ishlash
		Tashkilot ichki tartib-qoidalar
		Elektron axborot tizimlari
		Ma'muriy va mehnat munosabatlari asoslari
	A2.02.5 Mehnat kodeksi va ichki tartib-qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Qoidalarga rioya qilishni kuzatish
		2. Kelib-ketish vaqtini qayd etish
		3. Mehnat intizomini buzgan xodimlar haqida tegishli hujjatlarni (buyruq, qaydnomalar, bildirgi, tushuntirish xati) rasmiylashtirish
		4. Hujjatlar aylanmasini tashkil etish va yuritish
		5. Xodimlarning huquqlari va majburiyatlari haqida tushuntirishlar berish
		6. Hisobotlar tayyorlash
		7. Elektron tizimlardan foydalanish
		Ko'nikmalar:
		Huquqiy bilimlar va qoidalarni qo'llay olish
		Hujjatlar bilan ishlash
		Tashkiliy va tashkiliy-rejalashtirish
		Xodimlar bilan muloqot qilish
		Muammolarni aniqlash va hal etish
		Elektron platformalardan foydalanish
		Jamoaviy ishlash va hamkorlik
		Bilimlar:
		Mehnat to'g'risidagi qonunchilik
		Mehnat intizomi va ichki tartib-qoidalar
		Hujjatlar bilan ishlash va rasmiylashtirish qoidalar
		Mehnat vaqtini nazorat qilish tizimlari
		Mehnat munosabatlari asoslari
		Korxona ichki me'yoriy hujjatlari
		Ma'muriy va huquqiy nazorat
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Biriktirilgan xodimlar harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik
		2. O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasidagi mehnat jarayonlarini mustaqil boshqarish va nazorat qilish, shuningdek, biriktirilgan xodimlar mehnatini tekshirish va rivojlantirish
A3.5 Xodimlarning ta'tillari va mehnat ta'tilini yuritish	A3.01.5 Ta'til jadvalini shakllantirish va bajarilishini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Ta'til jadvali loyahasini tayyorlash
		2. Ta'tillar uchun arizalarni qabul qilish va ko'rib chiqish
		3. Ta'til jadvaliga rioya etilishini nazorat qilish
		4. Mehnat to'g'risidagi qonunchilik va ichki tartib-qoidalarga muvofiqlikni ta'minlash
		5. Hujjatlarni rasmiylashtirish va saqlash
		7. Hisobotlar tayyorlash
		8. Muammolarni hal qilish

		Ko'nikmalar: Ta'til jadvalini tuzish va uni muvofiqlashtirish Hujjatlar bilan ishlash Mehnat to'g'risidagi qonunchilik va tashkilot ichki tartib-qoidalari asosida ta'tillar bilan bog'liq qoidalarni qo'llash Xodimlar bilan muloqot qilish Muammolarni hal qilish Elektron platformalardan foydalanish Tahlil va hisobot tayyorlash Bilimlar: Mehnat to'g'risidagi qonunchilik Tashkilot ichki tartib-qoidalari Hujjatlar rasmiylashtirish qoidalari Kadrlar hisobi va nazorati Mehnat munosabatlari asoslari Elektron platformalardan foydalanish qoidalari Tashkiliy-rejalashtirish asoslari
	A3.02.5 Ta'tilga chiqish va qaytish bo'yicha tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish	Mehnat harakatlari: 1. Xodimlar arizalarini qabul qilish va tekshirish 2. Ta'tilga chiqishga ruxsat berish uchun hujjatlarni tayyorlash 3. Ta'tildan qaytish hujjatlarini rasmiylashtirish 4. Hujjatlarni saqlash va yuritish 5. Ma'lumotlarni elektron tizimga kiritish 6. Nazoratni ta'minlash 7. Xodimlar bilan muloqot qilish Ko'nikmalar: Hujjatlar bilan ishlash Qonunchilik va ichki qoidalarni qo'llay olish Xodimlar bilan muloqot qilish Tashkiliy va rejalashtirish Elektron dasturlardan foydalanish Ma'lumotlarning to'g'ri va mukammal bo'lishini ta'minlash Bilimlar: Mehnat to'g'risidagi qonunchilik Ichki tartib-qoidalar va tashkiliy hujjatlar Hujjatlar rasmiylashtirish qoidalari Kadrlar hisobotini yuritish asoslari Mehnat munosabatlari asoslari Elektron dasturlardan foydalanish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Biriktirilgan xodimlar harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik 2. O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasidagi mehnat jarayonlarini mustaqil boshqarish va nazorat qilish, shuningdek, biriktirilgan xodimlar mehnatini tekshirish va rivojlantirish

A4.5 Hisobotlar va statistik ma'lumotlar tayyorlash	A4.01.5 Mehnatga oid ichki va davlat organlariga taqdim etiladigan hisobotlarni tayyorlash (elektron platformada yuritish)	Mehnat harakatlari:
		1. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish
		2. Hisobot shakllarini to'ldirish
		3. Hujjatlarni elektron shaklda yuklash, saqlash va zarur bo'lganda taqdim etish
		4. Ma'lumotlarning aniqligi va to'g'riligini nazorat qilish
		5. Hisobotlarni o'z vaqtida tayyorlash va taqdim etish
		7. Hisobot tayyorlash jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va ularni hal etish
		Ko'nikmalar:
		Hisobot tayyorlash
		Elektron tizimlarda ishlash
		Hujjatlar bilan ishlash
		Davlat organlari va tashkilot ichidagi mas'ul shaxslar bilan samarali aloqa o'rnatish
		Hisobotlardagi ma'lumotlarning to'g'ri va mukammal bo'lishini ta'minlash
		Hisobot tayyorlash jarayonlarini rejalashtirish va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash
		Rahbariyat va davlat organlari uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etish
		Bilimlar:
		Mehnat to'g'risidagi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar
		Hisobot shakllari va ularni to'ldirish qoidalari
	A4.02.5 Xodimlar to'g'risida ma'lumotlarni (soni, yoshi, jinsi, tajribasi va h.k.) yuritish	Elektron platforma va axborot tizimlari
		Kadrlar hisobi va statistika
		Hujjatlarni rasmiylashtirish va nazorat qilish qoidalari
		Davlat organlari bilan munosabatlar, hisobot taqdim etish tartibi
		Mehnat harakatlari:
		1. Ma'lumotlarni yig'ish va to'plash (elektron platformadan yuklab olish)
		2. Ma'lumotlarni qayd etish va ro'yxatga olish
		3. Ma'lumotlarni yangilash va tekshirish
		4. Hujjatlarni rasmiylashtirish va saqlash
		5. Hisobotlar tayyorlash
		6. Ma'lumotlarni elektron shaklda kiritish va qayta ishlash
		7. Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash
		8. Xodimlar bilan ishlashda odob-axloq qoidalariga rioya qilish
		Ko'nikmalar:
		Hujjatlar va elektron formalarda ma'lumotlarni to'g'ri kiritish
		Elektron tizimlarda ishlash
		Hujjatlar bilan ishlash
		Ma'lumotlarni tahlil qilish va rahbariyatga aniq va tushunarli shaklda taqdim etish

		Tekshirish va ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlash
		Ma'lumotlarni tizimli yuritish va saqlash
		Xodimlar va rahbariyat bilan samarali aloqa o'rnatish
		Bilimlar:
		Kadrlar hisobi va statistika asoslari
		Mehnat to'g'risidagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar
		Ma'lumotlarni elektron tizimlarda yuritish qoidalari
		Hujjatlarni rasmiylashtirish va saqlash qoidalari
		Mehnat munosabatlari va kadrlar siyosati
		Tahlil va hisobot tayyorlash qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Biriktirilgan xodimlar harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik
		2. O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasidagi mehnat jarayonlarini mustaqil boshqarish va nazorat qilish, shuningdek, biriktirilgan xodimlar mehnatini tekshirish va rivojlantirish
A5.5 Xodimlar bilan ishlash (psixologik va ijtimoiy masalalarda)	A5.01.5 Yangi xodimlarni adaptatsiya qilishda yordam berish	Mehnat harakatlari:
		1. Adaptatsiya rejasini tayyorlash
		2. Hujjatlarni rasmiylashtirish
		3. Tanishuv va yo'l-yo'riq berish jarayonini o'tkazish
		4. Adaptatsiya jarayonini kuzatish va baholash
		5. O'quv va rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etish
		6. Jamoaga integratsiya qilishni tashkil etish
		7. Tegishli hisobot va ma'lumotlarni yuritish
		8. Yangi xodimga ish jarayonida doimiy ravishda maslahat berish va yo'l-yo'riq ko'rsatish
		Ko'nikmalar:
		Yangi xodimlar bilan samarali, ochiq va ishonchli muloqot o'rnata olish
		Tashkiliy va rejalashtirish
		Yo'l-yo'riq berish va o'rgatish
		Yangi xodimni qo'llab-quvvatlash va zarur yordamni taklif qilish
		Mas'uliyat va nazorat qilish
		Axborot texnologiyalari foydalanish
		Bilimlar:
		Mehnat to'g'risidagi qonunchilik
		Kadrlar ish yuritishi va hujjatlar bilan ishlash asoslari
		Tashkilotning ichki tartib va siyosatlari
		Psixologiya va inson munosabatlari asoslari
		Adaptatsiya jarayonini tashkil etish va boshqarish qoidalari
		O'quv va rivojlantirish jarayonlari
		Axborot texnologiyalari va elektron hujjatlar bilan ishlash asoslari
	A5.02.5 Mehnat nizolarini hal	Mehnat harakatlari:
		1. Nizo sabablarini aniqlash va tahlil qilish
		2. Ishchi va rahbariyat bilan muloqot o'rnatish

	qilishda ishtirok etish	3. Hujjatlarni tayyorlash va tekshirish 4. Qonunchilik va ichki nizomlarga muvofiqlikni ta'minlash 5. Mediatorlik (birlashtiruvchi) faoliyatini amalga oshirish 6. Komissiya ishida ishtirok etish 7. Yozma va elektron hisobot tayyorlash 8. Sudgacha bo'lgan jarayonida ishtirok etish Ko'nikmalar: Xodim va ish beruvchi o'rtasida xolis, konstruktiv va tinch muomala olib borish Mehnat to'g'risidagi qonunchilikni amaliyotda qo'llash Hujjatlar bilan ishlash Muzokara olib borish va kelishuvga erishish Nizoli vaziyatlarni boshqarish Tahlil va xolis baholash Komissiyalar bilan ishlash, huquqshunoslar yoki rahbariyat bilan ma'lumot almashish Ma'lumot maxfiylikni saqlash Bilimlar: Mehnat to'g'risidagi qonunchilik Ish beruvchi va xodim o'rtasidagi huquqiy munosabatlar Kadrlar hujjatlarini yuritish tartibi Nizolarni boshqarish va konfliktologiya asoslari Etika va psixologik Sud amaliyoti va murojaat qilish tartiblari Axborot tizimlaridan foydalanish Tashkilotning ichki qoidalar va reglamentlari
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Biriktirilgan xodimlar harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik 2. O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasidagi mehnat jarayonlarini mustaqil boshqarish va nazorat qilish, shuningdek, biriktirilgan xodimlar mehnatini tekshirish va rivojlantirish
Texnik va/yoki texnologik talab		Kompyuter va ofis texnikalaridan foydalanish; Microsoft Office (Word, Excel, Outlook) va boshqa ofis dasturlarida ishlash; Elektron hujjat aylanishi tizimlarida hujjatlarni yuritish; HR axborot tizimlari va my.mehnat.uz platformasida ishlash; Elektron raqamli imzo (ERI) va elektron hujjatlar bilan ishlash; Xodimlar ma'lumotlar bazasini yuritish va axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish; Elektron hisobotlarni tayyorlash va raqamli aloqa vositalaridan foydalanish.

Kasbning nomi	Kadrlar hisobi bo'yicha mutaxassis	
Mashg'ulot nomining kodi	44160	
TMR bo'yicha malaka darajasi	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yilgan talablar	Ta'lim darajasi boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim bo'lganda 2 yillik amaliy tajriba talab etiladi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Strategik va tizimli fikrlash; Muloqot va fasilitatsiya qobiliyati; Tashabbuskorlik va ijodkorlik; Tahliliy yondashuv va natijaga yo'naltirilganlik; Moslashuvchanlik va o'zini rivojlantirish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim, norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	Kadrlar bo'yicha yordamchi Kadrlar va maxsus ish bo'yicha inspektor Ish vaqti hisobi bo'yicha mutaxassis Kadrlar hisobi bo'yicha xodim Kadrlar bo'yicha yordamchi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Xodimlarni rivojlantirish bo'yicha professional-mutaxassis
	5	Kadrlar bo'yicha inspektor
	5	Rekruter
	5	Xed-xanter
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.5 Xodimlar yozuvlarini boshqarish	B1.01.5 Xodimlar vaqtini hisoblash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Xodimlarning ishga kelish va ishdan ketish vaqtlarini (tabel) kunlik qayd etish
		2. Ish vaqti hisobi hujjatlarini (tabel, jurnal, elektron tizimlar) yuritish va yangilab borish
		3. Ishlangan soatlar, smenalar va ish kunlari miqdorini aniqlash va hisoblash
		4. Ortiqcha ish soatlari, tungi smenalar, dam olish va bayram kunlaridagi ishni alohida hisobga olish
		5. Xodimlarning mehnat ta'tili, kasallik varaqasi, xizmat safari va boshqa sabablarga ko'ra ishda bo'lmagan kunlarini qayd etish
		6. Ish vaqti hisobida aniqlangan xatoliklarni tekshirish va tuzatish

		7. Ish vaqti hisoboti bo'yicha ma'lumotlarni oylik va yillik hisobotlarga jamlash
		8. Ish haqi hisob-kitobi uchun buxgalteriya bo'limiga ish vaqti bo'yicha tasdiqlangan ma'lumotlarni taqdim etish
		9. Ish vaqti hisobi bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlar va mehnat qonunchiligi talablariga rioya etilishini nazorat qilish
		10. Elektron tabellashtirish tizimlari va avtomatlashtirilgan dasturlar bilan ishlash
		Ko'nikmalar:
		Ish vaqti tabelini qo'lda va elektron shaklda to'ldirish
		Ishlangan soatlar, smenalar va ish kunlarini aniq hisoblash
		Ortiqcha ish, tungi ish, dam olish va bayram kunlaridagi ishni alohida hisobga olish
		Xodimlarning mehnat ta'tili, kasallik varaqasi, xizmat safari va ishda bo'lmagan davrlarini to'g'ri qayd etish
		Elektron tabellashtirish va HR axborot tizimlari bilan ishlash
		Ish vaqti hisobi bo'yicha ma'lumotlarni tekshirish, xatoliklarni aniqlash va bartaraf etish
		Ish vaqti hisobi natijalarini umumlashtirish va hisobotlar tayyorlash
		Ish haqi hisob-kitobi uchun buxgalteriya bilan hamkorlikda ishlash
		Mehnat qonunchiligi va ichki mehnat tartibi qoidalariga muvofiq ish yuritish
		Axborotlar bilan aniq va maxfiy ishlash, ma'lumotlar xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Mehnat qonunchiligida ish vaqti, dam olish vaqti va ish rejimiga oid talablar
		Ish vaqti hisobi (tabellashtirish) qoidalar va usullari
		Ortiqcha ish, tungi ish, dam olish va bayram kunlaridagi ishni hisoblash tartibi
		Smenali ish, grafik asosida ishlash va ish vaqtining jamlab hisobini yuritish tartibi
		Mehnat ta'tillari, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik (kasallik varaqasi), xizmat safari va boshqa ishda bo'lmalik holatlarini hisobga olish qoidalar
		Ish vaqti hisobiga oid birlamchi hujjatlar va hisobot shakllari
		Ish haqi hisob-kitobi bilan ish vaqti hisobi o'rtasidagi bog'liqligi asoslari

		Elektron tabellashtirish tizimlari va HR axborot tizimlarining ishlash prinsiplari
		Korxona ichki mehnat tartibi qoidalari va lokal me'yoriy hujjatlar
		Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik talablari
	B1.02.5 Xodim(kadr)lar harakati bo'yicha hisobotlarni tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Xodimlarni ishga qabul qilish, boshqa lavozimga o'tkazish va ishdan bo'shatishga oid ma'lumotlarni yig'ish va tizimlashtirish
		2. Kadrlar harakatiga oid birlamchi hujjatlar (buyruqlar, arizalar, shartnomalar)ni tahlil qilish
		3. Xodimlar harakati bo'yicha ma'lumotlarni kadrlar hisobi tizimlariga kiritish va yangilab borish
		4. Hisobot davri uchun kirim, chiqim va ichki harakat ko'rsatkichlarini hisoblash
		5. Xodimlar sonining o'zgarishi, aylanish (aylanma) koeffitsientlarini aniqlash
		6. Belgilangan shakl va muddatlarda oylik, choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlash
		7. Hisobot ma'lumotlarining to'g'riligi va to'liqligini tekshirish, xatoliklarni bartaraf etish
		8. Hisobotlarni rahbariyat, buxgalteriya va vakolatli davlat organlariga taqdim etish
		9. Kadrlar harakati bo'yicha hisobot ma'lumotlarini arxivlash va saqlash
		10. Kadrlar harakati hisobotlarini tayyorlashda mehnat qonunchiligi va ichki me'yoriy hujjatlarga rioya etilishini ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		Kadrlar harakatiga oid ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish va tahlil qilish
		Ishga qabul qilish, lavozim o'zgarishi va ishdan bo'shatish bo'yicha hujjatlar bilan ishlash
		Kadrlar hisobi va HR axborot tizimlarida ma'lumotlar kiritish va yangilash
		Oylik, choraklik va yillik kadrlar harakati hisobotlarini tayyorlash
